XALQ DEPUTATLARI BALIQCHI TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 27 - iyun VI-38-48-1-18-K/23 Baliqchi tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ochiq byudjet” axborot portali orqali fuqarolar tomonidan 2023 yil 1-mavsumda bildirilgan takliflarga ovoz berish bo‘yicha g‘olib deb topilgan tadbirlar uchun ajratilgan mablag‘larni qolgan qismini yo‘naltirish to‘g‘risida

Mahalliy byudjet mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi ustidan deputatlar nazoratini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi “Mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 20 sentyabrdagi “Tuman (shaxar) byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan mablag‘larga yo‘nalitirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi KQ-406-IV-sonli qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24–moddasiga xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi "Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-117 qarorga asosan Halq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tumanda har biri 2 mingdan ortiq ovoz to‘plagan ammo g‘olib deb topilmagan loyihalarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi PQ-117-qarori hamda halq deputatlari Baliqchi tumani kengashining 2023 yil 10 may kungi VI-37-29-1-18-K/23 qaroriga muvofiq mablag’ ajratilgan.

Ushbu mablag’lar hisobidan Gulshan MFY 51-sonli umumta’lim maktabi

(ID 0019161003) va Mallachek MFY 22-sonli umumta’lim maktabi (ID 0016379003) loyihalar uchun Moddiy qimatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning qolgan qismi tuman iqtisodiyot va moliya bo’limi hamda tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limining takliflariga binoan 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

Moddiy qimatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar so‘ngi maddati etib joriy yilni avgust oyi belgilansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (D.Qosimov)ga “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1-ilovaga muvofiq mablag‘larni tegishli tartibda ajratilishini hamda o‘rnatilgan tartiblar asosida moliyalashtirilishini, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi hisobidan ajratilgan mablag‘larni tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan maqsadli sarflanishini nazoratini ta’minlasinlar.

3. Ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflanishi uchun “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom asosida ish tashkil etilsin.

4. Ishchi guruxga va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga har chorak yakuni bo‘yicha Halq deputatlari tuman Kengashiga mablag‘larni ajratilishi, sarflanishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Baliqchi tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Karimov), tuman “G‘alaba gazetasi (Sh.Karimova) jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish tavsiya etilsin,

6. Mazkur qaror ijrosining ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Yulchiyev), tuman hokimning qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (M.Mamatov)lar zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati Halq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Baliqchi tuman hokimi **J.Abdurayimov**

Xalq deputatlari Baliqchi tuman
Kengashining
2023-yil 27-iyundagi
VI-38-48-1-18-K/23-son qaroriga
1-ilova

Baliqchi tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan Gulshan MFY 51-sonli umumta’lim maktabi **ID 0019161003** loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tavar (xizmatlar)
Reyestri

ming so‘mda

T/R	**Tavar (xizmat) nomi**	**Soni**	**bozor narxi**	**Summasi**
1	Quyosh panel (akumlyatorlik) komplekt	15 kVt	180 000	180 000
2	Fortopianino	1 ta	35 000	35 000
3	Texnalogya xonasiga o'gil bolalar uchun Tokarniy stanok (металл) настольный JET BD-11G 1500W	1 ta	95 000	95 000
4	Optik mikroskop (uquv laboratoriya jixozi)	5 ta	30 000	30 000
Loyixa amalga oshirish jami qiymati				**340 000**

Xalq deputatlari Baliqchi tuman
Kengashining
2023-yil 27-iyundagi
VI-38-48-1-18-K/23-son qaroriga
2-ilova

Baliqchi tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko‘ra g‘olib bo‘lgan Mallachek MFY 22-sonli umumta’lim maktabi
ID 0016379003 loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tavar (xizmatlar)
Reyestri

ming so‘mda

T/R	**Tavar (xizmat) nomi**	**Soni**	**bozor narxi**	**Summasi**
1	Quyosh panel (akkumulyatorlik) komplekt	15 kVt	180 000	180 000
2	Radiator (seksya)	1800 dona	90	162 000
3	Kranik	360 dona	20	7 200
4	Amerkanka	360 dona	20	7 200
5	Turba 40	200 dona	25	5 000
6	Turba 50	200 dona	30	6 000
7	Turba 25	200 dona	13	2 600
Loyixa amalga oshirish jami qiymati				**370 000**